



O'ZBEKISTON - QOZOG'ISTON IQTISODIYOTLARI: RAQOBAT, INTEGRATSIYA VA ISTIQBOLLAR"

Egamberdiyev Muzaffar

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti Dotsent v.b. (PhD)
20muzaffar@mail.ru

Qodirov Abubakr Nodirxon o'g'li

Alfraganus University Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)
yo 'nalishi 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: So 'nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari o'rta sidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy aloqalar sezilarli darajada o'zgarmoqda. Tarixan bizga ma'lum bo'lganidek endi markazdagi davlatlar raqobatchi emas, hamkorlikni tanlamoqda, raqobat o'rnnini hamkorlik tamoyili egallamoqda. Ushbu maqolada Markaziy Osiyodagi ikki yirik iqtisodiy tarmoqlarga ega bir millat - ikki davlat hisoblangan Qozog'iston va O'zbekistonning iqtisodiy raqobati va integratsiyaning shakllanishi hamda ko'p qirrali hamkorlik natijalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Qozog'iston, liberallashuv, raqobat muhiti, sanoatlashuv, Markaziy Osiyo, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy model.

Аннотация: В последние годы политические и торгово-экономические отношения между странами Центрально-Азиатского региона существенно меняются. Как мы знаем из истории, страны, находящиеся в центре, больше не являются конкурентами, а выбирают сотрудничество, и принцип сотрудничества заменяет конкуренцию. В статье рассматриваются экономическая конкуренция и интеграция Казахстана и Узбекистана, двух стран с двумя основными секторами экономики в Центральной Азии, а также результаты их многогранного сотрудничества.

Ключевые слова: Узбекистан, Казахстан, либерализация, конкурентная среда, индустриализация, Центральная Азия, экономический рост, экономическая модель.

Abstract: In recent years, political, trade and economic relations between the countries of the Central Asian region have been changing significantly. As we know from history, now the countries in the center are choosing cooperation, not competition, and the principle of cooperation is replacing competition. This article examines the economic competition and integration of Kazakhstan and Uzbekistan, which are considered one nation - two states with two major economic sectors in Central Asia, as well as the results of multifaceted cooperation.

Keywords: Uzbekistan, Kazakhstan, liberalization, competitive environment, industrialization, Central Asia, economic growth, economic model.



KIRISH

O‘zbekiston va Qozog‘iston – Markaziy Osiyoning ikki yetakchi davlati sifatida tarixan, siyosiy, madaniy sohalarda eng peshqadam davlatlar. Ularning har qaysi sohadagi munosabatlari har doim dunyo davlatlari uchun doim qiziqarli bo‘lgan, ayniqsa iqtisodiy jihatdan o‘zaro raqobat va hamkorlik munosabatlari. Sovet Ittifoqi davridan boshlab bu ikki davlat o‘zaro iqtisodiy taqsimotda muhim o‘rin egallagan. Bugungi kunda esa ular mustaqil davlat sifatida o‘z iqtisodiy modelini shakllantirgan. Mintaqaviy yetakchilik uchun raqobat muhiti yaqqol bo‘lmasada zekilarli darajada ko‘zga tashlanadi. Ushbu maqolada O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasidagi iqtisodiy raqobat, integratsiya jarayonlari va istiqboldagi imkoniyatlar tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Markaziy Osiyo jug‘rofiyasidagi eng yirik va strategik jihatdan muhim davlatlar hisoblangan Qozog‘iston va O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti so‘nggi yillarda sezilarli sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu ikki davlat o‘zining tabiiy resurslari, geografik joylashuvi, demografik salohiyati va siyosiy barqarorligi bilan mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarning markazida turibdi. Iqtisodiy raqobat va integratsiya muammolari aynan shu kontekstdan kelib chiqadi.

Iqtisodiy salohiyat va asosiy ko‘rsatkichlar: Qozog‘iston iqtisodiyotining tayanch nuqtasi avvalo, neft va gaz resurslariga tayanadi. U 2020-yillarda global energiya bozorlari bilan faol integratsiyalashib, neft qazib olish va eksport qilish orqali yalpi ichki mahsulot (YaIM) hajmini barqaror o‘sish yo‘liga olib chiqqan. 2023-yil yakunlariga ko‘ra, Qozog‘istonning YaIM hajmi 250 milliard AQSh dollaridan oshdi. Aholi soni nisbatan kamroq (taxminan 20 million kishi), ammo yuqori darajadagi tabiiy resurslar uni iqtisodiy jihatdan qudratli davlatga aylantirmoqda.

O‘zbekiston esa diversifikatsiyalashgan iqtisodiy modelni tanlab, so‘nggi yillarda sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasida jadal islohotlar olib bordi. 2023 -yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatning YaIM hajmi 90 milliard dollarga yetdi. Aholi soni 36 milliondan ortiq bo‘lib, ichki iste’mol bozori hajmi katta, bu esa mamlakatni yirik ishlab chiqarish va xizmatlar markaziga aylantirish imkonini beradi. O‘zbekiston, shuningdek, transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga katta e’tibor qaratmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro savdo yo‘llarining kesishgan nuqtasida joylashgan ushbu davlatlar uchun Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” tashabbusi doirasidagi hamkorlik strategik ahamiyatga ega. Qo‘shma infratuzilma loyihalari, transport yo‘lklari, bojaxona standartlari birlashtirilishi o‘zaro savdoni sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish yo‘lida ayrim to‘siqlar ham mavjud: savdo bojlarining turlicha darjasи, soliq tizimlaridagi nomuvofiqlik, investitsion muhitdagi farqlar hamda ba’zi hollarda siyosiy raqobat elementlari. Shunga qaramay, so‘nggi yillarda ikki davlat o‘rtasida iqtisodiy diplomatiya faollashganini kuzatish mumkin. O‘zaro savdo hajmi ortib bormoqda, qo‘shma korxonalar soni ko‘paymoqda, ishbilarmon doiralar aloqalari chuqurlashmoqda.



Kelajakda Qozog‘iston va O‘zbekiston o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash nafaqat ikki davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi barqarorligi va rivoji uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Integratsiya va raqobat uyg‘unlashgan holatda rivojlansa, bu mintaqani yangi global iqtisodiy kuch markaziga aylantirishi mumkin.

- **QOZOG‘ISTON – RESURSLARGA TAYANGAN MODEL**

Qozog‘iston iqtisodiyoti modelining vujudga kelishi mustaqillikdan keyin amalga oshdi. U ham bozor iqtisodini tanladi va unga o‘tish uchun kerakli strategik loyiha va qarorlarni ishlab chiqdi. 1991-2000 yillar uchun mo‘jallangan birinchi qadamda Qozog‘iston quyidagi yo‘nalishlarga e’tiborini qaratdi:

1. Xususiylashtirish
2. Chetdan sarmoya jalg qilish
3. Neft-gaz sohasini iqtisodning tayanchi deb bilish.

- **O‘ZBEKISTON – BOSQICHMA-BOSQICH YONDASHUV MODELI**

O‘zbekiston ham o‘z bozor iqtisodiyotiga yangi yondashuv yangi model ishlab chiqdi, unda:

1. Xususiylashtirishdagi ehtiyyotkorlik
2. Ijtimoiy barqarorlik uchun narxlar nazorati
3. Valyuta va savdo nazorati.

Qozog‘istonda iqtisodiy islohotlar kengayishi, xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va energetika resurslarini eksport qilish orqali tez sur’atlarda rivojlanishi 2000-yillarni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston esa islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirdi. 2017-yildan keyingi iqtisodiy liberallahuv O‘zbekistonni yangi bosqichga olib chiqdi.

(1-rasm)

Ko‘rsatkich	Qozog‘iston	O‘zbekiston
YalM (nominal, \$)	~250 mlrd	~100 mlrd
Aholi soni	~20 mln	~37 mln
Aholi yosh tarkibi	Nisbatan qarigan	Juda yosh
Eksport asosiy yo‘nalishi	Energetika	Qishloq xo‘jaligi, sanoat, xizmatlar
YalM tarkibi (sohalar)	60% xizmatlar	50% xizmatlar, 30% sanoat, 20% QX
Ishsizlik darajasi	4.9%	8–9%
Xorijiy investitsiyalar (FDI)	Yuqori (neftga asoslangan)	Ko‘p tarmoqli, o’sib borayotgan

Yuqoridagi jadvalda davlatlarning umumiy iqtisodiy ko‘rsatichlari ko‘rsatildi.



• Qozog'istonning YaIM ko'rsatgichi O'zbekistonnikidan ancha yuqoriligi bilan farq qiladi, Yuqorida aytganimizdek, Qozog'iston neft, gaz, uran va boshqa foydali qazilmalar bo'yicha dunyoda yetakchi o'rnlarda turadi. Eksportning katta qismini xom neft va gaz tashkil etadi, bu esa mamlakatga katta daromad keltiradi.

• O'zbekiston iqtisodiyoti Qozog'istonning iqtisodiy faoliyatidan farqli ravishta faqat bir sohaga (masalan, neft yoki gaz) tayanmaydi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va eksport sektorlariga muvozanatlari taqsimlangan. Masalan, Turkmaniston asosan gaz eksportiga bog'liq, Qozog'iston esa asosan neft va metallga. O'zbekiston aholisi **37** mln kishi bilan O'rta Osiyodagi eng yirik ichki bozorga ega. Bu sanoat va xizmatlar sohasining barqaror ichki iste'molchilar

ega bo'lishini ta'minlaydi. Bu borada demografik afzallik ham muhim jihatni kasb etadi. Yoshlar ulushi yuqori — ishchi kuchi arzon va ko'p.

Geoijtisodiy markaz - Xitoy – Yevropa transport yo'llari (Temiryo'l, avtomobil va logistika markazi).

Qishloq xo'jaligi salohiyati - Paxta, g'alla, meva-sabzavot eksporti bo'yicha yetakchi. Agrotexnologiyalarni joriy etish orqali hosildorlik oshmoqda.

Soliq tizimining soddalashuvi, elektron hukumat, shaffoflik siyosati xalqaro reytinglarda ijobjiy o'zgarishlarga olib kelmoqda (Doing Business, Transparency International). Tashqi siyosatda muvozanat - Xitoy, Rossiya, Turkiya, Yevropa bilan muvozanatlari va mustaqil hamkorlik olib borilmoqda.

Hozirda yana bir ustun jihatni bemalol ayta olamiz chunki geografik jihatdan O'zbekiston - Markaziy Osiyoning "yuragi" hisoblanadi.

(2-rasm)



INTEGRATSIYA

Bugungi davr raqobatni emas balki, birlikni va hamjihatlikni taqazo etadi. Negaki bugungi dunyoda turli nizo va kelishmovchiliklar davom etayotgan ekan bundan o'z yo'lini qat'iy belgilashning o'zi ham buyuk fidokorlikni talab qiladi. Bunda ko'rinish turibdiki,



qardosh aka-ukalarga raqobat emas birlik va jipslik birdan-bir yo‘l bo‘ladi xolos. Ikkala davlat mintaqaviy va xalqaro integratsiya jarayonlarida faol ishtirok etmoqda. Masalan, Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi (YeOII) doirasida Qozog‘iston a’zoligi orqali ko‘proq integratsiyalashgan bo‘lsa, O‘zbekiston ehtiyyotkorona yondashuvni tanlab, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama aloqalarni kuchaytirmoqda. Shu bilan birga, integratsiya va hamkorlik ham kuchaymoqda. Masalan, 2022-yilda ikki davlat o‘rtasida Strategik sheriklik to‘g‘risidagi deklaratсиya imzolandi. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik sohalarida hamkorlikni chuqurlashtirishga yo‘l ochdi. Bugungi barpo etilayotga “Yangi O‘zbekiston” ning yagona maqsadi - tichlik va hamjihatlikni aks ettiradi. Biz nafaqat Qozog‘iston bilan balki boshqa qo‘shnilarimiz jumladan, Tojikiston, Qirg‘izstan Turkmaniston bilan ham keng strategik islohatlarni olib bormoqda.

Integratsiya jarayonida quyidagi sohalar ustuvor ahamiyatga ega.

Transport va logistika tizimining uyg‘unlashuvi: “Yaqin qo‘shnichilik” tamoyiliga asoslangan temiryo‘l va avtomobil yo‘llari orqali savdo oqimlari soddalasmoqda.

Energetika bozorida kooperatsiya: Qozog‘iston va Turkmaniston gaz va neft eksportida, Tojikiston esa gidroenergetika sohasida muhim rol o‘ynaydi. Ular o‘zaro almashinuv mexanizmlari orqali barqaror energiya ta’minotini yo‘lga qo‘yishi mumkin.

Erkin savdo hududlari va soddalashtirilgan bojxona tizimi: Savdoni liberallashtirish orqali mintaqaviy mahsulotlar aylanishi ko‘paymoqda.

Shunga qaramay, quyidagi muammolar integratsiyaga to‘sinq bo‘lmoqda:

Tashqi siyosatdagi nomuvofiqliklar;

Bojxona va soliq siyosatidagi farqlar;

Suv resurslari va chegara masalalaridagi kelishmovchiliklar.

Xulosa: Qozog‘iston va O‘zbekiston iqtisodiy raqobatda har birining o‘ziga xos ustunliklariga ega. Qozog‘iston – eksportga yo‘naltirilgan resurslar iqtisodiyoti. Neft, gaz, uran, mis va boshqa xomashyolarga boyligi sababli u global sanoat tarmoqlari bilan yaqin integratsiyada. Uchinchi tarafdan, past aholi zichligi va keng geografik maydon infratuzilmani rivojlantirishda muammolarni yuzaga keltiradi.

O‘zbekiston esa ishchi kuchining mo‘lligi va narx jihatdan raqobatbardorligi bilan ajralib turadi. Mamlakatda inson kapitali salohiyati yuqori, yoshlar soni ko‘p, bu esa mehnat talab qiluvchi sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirishga imkon beradi. Shuningdek, islohotlarga ochiqligi, tashqi savdo rejimining liberallashtuvi va investorlar uchun yaratilgan preferensiylar O‘zbekistonning iqtisodiy jozibadorligini oshirmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi iqtisodiy integratsiya – bu faqat iqtisodiy daromad masalasi emas, balki siyosiy barqarorlik va mintaqaviy taraqqiyot garovi hamdir. Shu boisdan ham bugun O‘zbekiston dunyoga ochildi va qo‘shni davlatlar bilan bo‘layotgan munosabatlarni tubdan yangiladi.





FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Qozog‘iston iqtisodiy modeli va YaIM bo‘yicha manbalar:

1. World Bank (Jahon banki)

- Sayt: <https://data.worldbank.org> (<https://data.worldbank.org/>)

• Bu yerda Qozog‘iston va O‘zbekistonning YaIM, aholi soni, eksport-import, iqtisodiy o‘sish sur’atlari kabi ko‘rsatkichlarini topish mumkin.

2. International Monetary Fund (IMF) – Xalqaro valyuta jamg‘armasi

- Sayt: <https://www.imf.org> (<https://www.imf.org/>)

• Iqtisodiy siyosatlar, inflyatsiya darajasi, makroiqtisodiy tahlillar va iqtisodiy proqnozlar e’lon qilinadi.

3. Asian Development Bank (ADB)

- Sayt: <https://www.adb.org> (<https://www.adb.org/>)

• Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiyoti bo‘yicha tahliliy hisobotlar e’lon qilinadi, ayniqsa energetika va infratuzilma loyihalari haqida.

4. Qozog‘iston Milliy iqtisodiyot vazirligi va Statistika qo‘mitasi

- Sayt: <https://stat.gov.kz> (<https://stat.gov.kz/>)

- Rasmiy davlat statistikasi, iqtisodiy ko‘rsatkichlar va yillik hisobotlar.

O‘zbekiston iqtisodiyoti bo‘yicha manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi

- Sayt: <https://www.mf.uz> (<https://www.mf.uz/>)

2. O‘zStat – O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi

- Sayt: <https://stat.uz> (<https://stat.uz/>)

• Aholi soni, YaIM, eksport-import, ishchi kuchi va iqtisodiy sektorlar bo‘yicha ma’lumotlar.

